

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Defektologiya kafedrası

**TIFLODIDAKTIKA
fanidan**

REFERAT

**MAVZU: KO`ZI OJIZLAR ATROF OLAMDA MO`LJAL
OLISH**

**Bajardi:M.Axmedova
202- guruh**

Rahbar:D.Mustafaqulova

J I Z Z A X – 2013

Ma'lumki atrof muhitda mo'ljal olishda va harakatni o'rgatish jarayonida atrofdagi ob'ektlarga ular haqidagi tasavvurlarga tayangan holda fazoni, makonni idrok etish amalga oshadi. Bir nechta olimlarimiz o'z fikrlarini aytib o'tishgan shulardan A.I.Komlon. K.T.Morozova ko'r bola sezgi kompleksiga harakat analizatorini kiritadilar. Ularni fikricha muskul sezgilari ko'rlarga ob'ektlar oralig'i baholash fazoda yo'nalish belgilash bo'yicha tasavvur shakllanish imkonini beradi.

V.A.Feokmistova (1973) eshitish ko'rishda nuqsoni bor bolalarni fazoda mo'ljal olish jarayonida muhim deb ta'kidlaydi. Buni ko'rishni qisman yoki butunlay yo'qotish sababli eshitish atrofdagi ob'ektlarni idrok etishdagi asosiy analizator bo'lib qolishdir deb e'tirof etadi. Eshitish sezgi va idrok yordamida ko'rlar ovoz manbai bo'lgan ko'rishayotgan predmetni lakomizatsiya qilish uni yo'nalishni aniqlash imkoniyatga ega bo'ladilar ko'chadagi transport harakatining tezligi fazoviy predmetlarning kattaligi haqida eshitish orqali ma'lumotga ega bo'ladi. Ovoz lokasiyasi yordamida eshitish orqali makonda yo'nalish belgilash yopiq tipdagi binolarda va ochiq tabiat maydonlarida amalga oshirish mumkin.

V.P.Ermakova (1979) hidlash sezgisi ko'rlarni fazoda mo'ljal belgilashda ko'p qo'llanadi degan fikrni ilgari suradi.

Atrof muhitda mo'ljal olish ko'rishda nuqsoni bo'lgan insonning muhim hayotiy ehtiyoji hisoblanadi. Ko'r va zaif ko'ruvchilarning fazoda mo'ljal olish malakasi qobiliyatini shakllantirish va takomillashtirish ularning butun hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladi.

Ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni ta'lim tarbiya jarayonida bolalarda makonda yunalishini belgilash tizimini shakllantirish kerak. Atrof muhitda mo'ljal olish malakasini shakllantirish mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish shuningdek o'z *kuchiga* ishonish mustahkam irodaga ega bo'lish bilan bog'liqdir.

Atrof muhitda mo'ljal olish va harakatlanishga o'rgatishning perspektiv maqsadi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar makonda erkin yunaltira olish va mustaqil harakatlanish imkonni beruvchi malakalarni shakllantirish bilan belgilanadi. Makonda yunalishni belgilashga o'rganish ta'lim mazmunni asosini ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kichik maktab yoshidanoq makonida harakatlanish zarurligini ta'kidlovchi yunalishda davom etadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda birinchi navbatda bolani yotoqxona, sinf xonasi maktab va maktab hovlisida yo'nalishni belgilash harakatlanishga o'rganish kerak. Shuningdek shu yoshda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jamoat joylarida transport harakatlanish malakasi, yashaydigan shahri mahallasi haqida tasavvurga ega bo'lish kerak. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchini ma'lum to'qnashuvlarda yuzaga keladigan himoya vositalari va yulovchi yordamida foydalanishga hali o'rganish lozim.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni fazoda mo'ljalni olish va harakatlanish bo'yicha mashg'ulotlar maktab o'quv rejasiga kiritilgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaga so'zlashuv nutqi asosida to'g'ri yo'nalishda hal qilishni o'rgatish kerak. Bu holatda xotoliklarni gapirish orqali tuzatish lozim korrektsiyalash so'zlari ozgina gapga, ozgina o'ngga, orqaroqqa oldinga, tepaga bo'lish mumkin. So'zli korrektsiya ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni sport bilan shug'ullanayotganlarida qo'llash mumkin. Makonda yunalishni belgilash bo'yicha mashg'ulotlarda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni quyidagi sezgi idroki malakalarini egallashi kerak.

1. Ko'r bola atrofda predmetlarni sezgi orqali aniqlash.
2. Ko'r bola atrofda predmetlar o'rtasidagi aloqani sezish.
3. Sxema, kartalar, maketlar chizish orqali o'qish.
4. Yo'l sxema yo'l kartalarini mustaqil tayyorlash bola harakatlanganda ovoz signalizatoriga tayanadi.

Atrof olamda mo'ljal olish ko'rishda nuqsoni bor insonlarning muhim hayotiy ehtiyoji hisoblanadi.

Ko'r va zaif ko'ruvchilarni atrof olamda mo'ljal olishga o'rgatish va uni takomillashtirishni butun hayoti davomida davom etadi. Bolalar barcha predmetlarni atrof olamda birinchi galda o'z-o'ziga munosabatda qabul qiladilar, shuning uchun inson tanasi va uning qismlarini bilish atrof olamda mo'ljal olish ta'limida muhim vazifa hisoblanadi. Bu mo'ljallar uchun stol, shkaf, eshik, daraxt va boshqalar kiradi. Atrof olamda mo'ljal olish bolalarning sensor rivojlanishini ta'minlaydi. Fazoviy fikrlash aqliy, intellektual faoliyat hisoblanadi. Bolalarning atrofda predmetlarning xususiyatlarini bilish muhimdir.

Shakli kattaligi, rangi, qanchalik bolalar ko'p predmetlarini bilsa, shunchalik mo'ljal olish engil kechadi.

Ijtimoiy - maishiy yo'naltirish.

Ijtimoiy mo'ljal olish maxsus korreksion mashg'ulotlar turiga kiradi. Bunda alohida xususiyatlar va milliy kadriyatlar hisobga olinadi. Mashg'ulotning mazmuni haqidagi mavzularni o'z ichiga oladi: "SHaxsiy gigiena", "Kiyim va oyoq-buyum", "Ovkatlanish", "Oila", «Hulq-atvor madaniyati», "Turar – joy", «Transport», «Savdo», «Tibbiy yordam» .

Ijtimoiy maishiy mo'ljal ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning hayotining zamoniy shart sharoitlariga ijtimoiy ruhiy moslashishini engillashtiradi.

«**Shaxsiy gigiena**» mavzu bo'yicha olib beriladigan mashg'ulot bolalarga tanani parvarishlashni, o'zining sog'ligini asrash va mustahkamlashni o'rgatadi.

«**Ovqatlantirish**» mavzusidagi mashg'ulot bolalarning oziqlanishning asosiy mahsulotlari bilan, oziqalarining saqlash va tayyorlash usullari bilan tanishtirishini ko'rib chiqadi.

O'z o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini kengitaytirish «kiyim va oyoq kiyim» «turar joy» mavzulardagi mashg'ulotlariga imkon yaratadi. Oilada, jamoada, sinfda, jamoat joylarida, shaxsiy munosabatlarining usul va qo'llanmalari «Oila va hulk atvor madaniyati» mavzudagi ochik bayon etiladi. Bolalar stol atrofida muzeyda, kutubxonada, kinotetrda, klubda o'zini tutishni o'rganadilar.

Bolalar aql va malakalarini shakllaninishida transport, magazin, tibbiy yordam bilan aloqada qo'llanmalardan foydalanish asosiy rol o'ynaydi. YUqoridagi bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirish uchun turli metodlar tushuntirish syujetli o'yinlarining o'ynalishi ekskursiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rish qobiliyatini rivojlantirish.

Ko'rish qobiliyatini rivojlantirish mashg'ulotlarini tashkil etishda psixofiziologik va psixologik-pedagogik uslublardan foydalanish samara beradi. Bu metodlar ko'rishda nuqsoni bor bolalarni barcha faoliyati va sensor apparatlarining rivojlanishida muo'im ao'amiyatga ega, psixofiziologik metodlar orqali predmetning asosiy qirralari "tomonlari" o'rganiladi.

Masalan: predmetning shakli kattaligi rangi.

Psixologik pedagogik metodlarga;

- predmetli;
- tasviriy;
- kom`pyuterli;
- televizionli;
- proektli metodlar kiradi.

Predmetli mmetodlar bolalarning ko'ruv faoliyatini predmetli amaliyotini mashqlar va o'yin davomida rivojlantirishga qaratiladi. Predmetli amaliy mashg'ulotlar perdmeklarni modellashtirish, qurish-yasash turli predmetlarni o'z ichiga oladi.

Bolalar predmetlarni idrok etishga uning shakli, kattaligini, rangini analiz qilib chiqishga o'rganadilar. Ko'rish qobiliyatini rivojlantirishda turli tasvirlardan foydalanib kelinmoqda. Masalan: oq qora, rangli, konturli, shtrixli tasvir. SHu o'rinda Vitaliy Pavlovich Ermakov ya'ni pedagogika fanlari doktori tomonidan yaratilgan ko'ruvni rivojlantirish va mashq qildirish xamda tekshirish uchun mo'ljallangan polixromatik tablisalardan foydalanib kelinmoqda. Bu test va tablisalar Rossiya va Yaponiya, Hitoy davlatlarida foydalanib kelinmoqda.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktab internatlari oldiga qo'yilgan umumta'lim va tarbiya vazifalari bilan bir qatorda o'quvchilarni ko'ruv qobiliyatini rivojlantirish va himoya qilish vazifasi ham qo'yilgan. Bu ishlar maktabda okulist rahbarligida amalga oshiriladi, shu jarayonda medisina hamshiralari faol ishtirok etadilar.

Pedagog va tarbiyachilar ham o'z hissalarini qo'shadilar. Ular davolash muolajalarini o'z vaqtida bajarishga va vrach tavsiyalariga qat'iy amal qilishini nazorat qiladilar. Ko'zoynak va boshqa optik ko'ruvchi korreksiyalovchi vositalarni tavsiya qilish davolash ishining asosiy aspektlaridan biridir.

Pedagog va tarbiyachilar bolalarni ko'zoynaklardan shifokor tavsiya etganidek, to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishlari lozim. Opravani to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. U yuz hajmli, qorachiqalar orasidagi masofaga mos tushishi kerak. Ottravani burun va kuloqlarni qizishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ko'pincha bolalar ko'zoynakni yo'qotadilar yoki sindiradilar. SHuning uchun bir yo'la bir necha ko'zoynak buyurtma berish zarur. Bolalar ko'zoynaklarini toza va ozoda saqlashga o'rgatib borish kerak. Ba'zi zaif ko'ruvchi o'quvchilarga teleskopik ko'zoynaklar yozib beriladi. Ular binokl' pedagogik-optik sistemani tasavvur qiladilar. YAqqol ko'zga tashlanadigan astigmatizm da yaqindan ko'rishda kontakt linzalar tavsiya etiladi. Kontakt linzalar shiff of plastmassa materiallardan va gidrofil plastmassasidan tayyorlanadi. Ular to'g'ridan to'g'ri qovoqlar ostidan ko'z soqqasiga taqiladi. Korreksiyaning bu turi eng mukammal hisoblanadi.

Plansfer, sferasilindirik, ortoskopiya lupalar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida keng qo'llaniladi. Bu lupalar organik shishadan tayyorlanadi. Bu lupalar ikki linzaning kombinasiyasidan iborat.

O'z faoliyatida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar 3,5-5 marta kattalashtiruvchi lupalardan foydalanishni afzal ko'radilar. Kichiklari matnlarni istagancha kattalashtirmaydilar. Kattalari esa ko'rish maydonini juda toraytiradi. Lupalarni okulist shifokor tavsiya qiladi. Pedagog va tarbiyachilar ulardan to'g'ri foydalanishi va saqlanishlarini nazorat qilishlari kerak. Lupalarni alohida qutilarda yoki xaltachalarda saqlash lozim. Ko'ruv nervi atrofiyasi, ishopiya, to'r parda distrofiyasi va boshqa kasalliklar bilan kasallangan bolalar kasallik jarayonida doimiy medik kamentoz davoga muhtojdirlar.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish.

Ko'ruv nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga logopedik yordam natijasida: sensor kamchilik to'ldiriladi, bolalarning bilish faoliyati faollashtiriladi, shaxs sifatlari shakllantiriladi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda nutq nuqsonlari , sog'lom bolalarga ko'ra ko'proq uchraydi.

- ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar ta'lim, tarbiyasida logopedik ishning ahamiyati;
- o'quvchilarning nutqini tuzatib borish, nutq nuqsonini yakka xususiyatlarini hisobot qilib borish;
- nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishni tashkil etish;
- ayrim tovushlarni qo'yishning logopedik yo'llarini;

- tovushlar avtomatizasiyasidagi ishning ketma-ketligi;
- logopedik ish uchun qo'llanmalar yaratish;
- nutqiy bilim ko'nikmalarni mustahkamlashda suhbat, o'yinning ahamiyati, kabi vazifalarni ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktablarida faoliyat yuritayotgan logopedlar hal qiladi. Sir emaski, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar nutq nuqsonlari, sog'lom bolalarga ko'ra ko'proq uchraydi. Buning natijasida ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarga savodga o'rganish jarayonida tayyor bo'lmaydi, yoki qiyinchiliklar kuzatiladi.

Ko'rishda nuqsoni bor o'quvchilar maktabida faoliyat yuritayotgan logoped ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilar bilan yakka va frontal holda mashg'ulot olib boradi. Nutq nuqsoniga qarab o'quvchilarning nutqiy fonematik va grammatik tuzilishidagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Savodga o'qitiladi, o'qish, yozuv, nutqni rivojlantiriladi.

Rel'ef shrifti - maxsus hajmli shrift bo'lib, ko'r bolalarni o'qish va yozishlari uchun moslashtirilgan. XVIII asr o'rtalarida Fransiyada ko'r bolalarni ommaviy o'qitishda, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida fransuz tiflopedagogi V.G.Ganei kesda rel'efi shriftini lotin alifbosi bo'yicha kattalashtirilgan shaklini taklif etadi. XIX asr boshlarida rel'efli shriftning ancha osonlashtirilgan bosma shrifti yuzaga keladi. Ayniqsa ko'p qo'llaniladigan turlaridan chiziqli, ignali bo'lgan. Tiflopedagogika tarixiga nazar tashlasak, bir necha marta rel'ef nuqtali shriftni yaratishga harakat qilingan. 1829-yil fransiyalik tiflopedagog olim Lui Brayl' rel'efli nuqtali shriftni yaratdi. Bu shriftni butun jahondagi ko'rlarni o'qish va yozish ta'minlovchi vosita bo'lib hizmat qilib kelmoqda.

Lui Brayl' 1809-yil 4-yanvarda Fransiyadagi Kuvra shaharchasida Simon Rene Brayl' oilasida o'g'il farzand dunyoga keladi. Uni ismini Lui deb atashadi. Lui 3 yoshga to'lganida fojia ro'y beradi: u ko'zini pichoq bilan shikastlab oladi. SHundan so'ng bolaning jarohatlangan ko'zlari shamollash natijasida ko'rish qobiliyatini yo'qotadi. Luining ota-onasi farzandga dastlabki mehnat ko'nikmalarini shakllanishtirishga yordam bera boshlaydilar. Jumladan: ot uchun gilamcha to'qish, engil oyoq kiyimlarini tikish kabi ishlarni Lui qunt bilan o'rganadi. Musiqa o'qituvchisi bilan skripka chalish mashg'ulot bilan shug'ullana boshlaydi. kishloq maktabida Lui oddiy tayoqchalar yordamida alifboni o'rgana boshlaydi.

1819-yili Parij shahridagi ko'r bolalar o'qiydigan institutga o'qishga qabul qilinadi. Ushbu institutda tarbiyalanuvchilarni savodga, musiqaga, to'qish va tikish saboqlari berilardi. Mashg'ulotlar uchun rel'efli-chiziqli shrift bilan yozilgan darsliklar ko'pgina predmetlar uchun mavjud emas edi. Talabalar musiqa notalarini faqatgina eshitib eslab qolish orqali o'rganar edilar.

Lui Brayl` institutning eng qobiliyatli talabalaridan biri edi. 1828-yili Lui Brayl` institutni bitirib, kichik o`qituvchi vazifasiga ishga qabul qilinadi. Shundan so`ng ushbu institutda geografiya, algebra, musiqa fanlaridan dars bera boylaydi. O`qituvchilik bilan birga Parijdagi Sen-Nikolya De SHan nomli cherkovda organchi lavozimida ishlaydi. Lui Brayl` o`qish va ishlash jarayonida Xauining bo`rtma harflari hamda uning metodikasini, artilleriyachi ofiser SHarl Barb`e tomonidan ishlab chiqilgan ma`lumotlarni jo`natish uchun mo`ljallangan rel`efli shtirfni puxta o`rganib chiqadi. Harflar karton teshikchalarda joylashgan bo`lib, "o`qish" da qiyinchiliklarni tug`dirar edi. Bundan tashqari Barb`ening harfiy timsollari katta-katta bo`lib, kichik yoshdagi ko`r bolalarni o`qishda qiyinchiliklar tug`dirar edi. Shunga qaramasdan Barb`ening rel`efli-nuqtali alifbosi L.Brayl` ijodiy impul`s beradi, u rel`efli-nuqtali sistema yaratishga kirishdi. U hayolan yaratilajak "tizim" ko`rlar uchun barcha predmetlardan saboq berishga mo`ljallanishi lozim deb o`ylaydi. Brayl` 1824-yilning yarmidan, ya`ni 15 yoshda dastlabki ekspriment ishlarini boshlab yuboradi. Bu kichik tizim ikkita vertikal qatordan iborat bo`lgan 1, 2, 3 nomerlar chap tomonda, 4, 5, 6 nomerlar o`ng tomonda joylashtirilgan edi. Bu sistema 63 ta kombinasiyadan iborat bo`lib, musiqa notalari, matematik sonlarni ham o`z ichiga qamrab olingandi. Ushbu sistema ustida Brayl` uzoq yillar ishlaydi. 1929-yili institut sovetiga ixtironi ko`rib chiqish uchun topshiradi. Lekin sistemani qo`llab quvvatlamaydilar. "Sog`lom o`qituvchilar uchun qiyinchilik tug`diradi" degan fikrlar yuzaga keladi.

Faqatgina 1837-yili institut sovetiga yana qo`yiladi. Lui Brayl` tomonidan yozilgan "Kratkuyu istoriyu Fransii" nomli asari rel`efi-nutqli alifboda chop ettirishga ruhsat beriladi. Asar dunyoga kelgandan so`ng Brayl` alifbosi to`liq tan olinadi va ta`sis etiladi. Brayl` tizimi 1853-yili Fransiyada keng tarqaladi. Lui Brayl` tomonidan yaratilgan alifbo uchun maxsus moslamalar ishlab chiqiladi. Rossiyada 1885-yili A.A.Adlerning asari Brayl` sistemasida chop etildi. Lui Brayl` 1852 yili 6-yanvarda kassalik tufayli vafot etadi. Kuvra shahrida Lui Braylning uy mezeyi ochilgan. 1887-yili shaharchada Lui Braylning haykali qurildi.

Brayl` tomonidan ta`sis etilgan 6 nuqtali shrift, quyidagicha:

O`qish jarayonida:

1•	•4
2•	•5
3•	•6

Yozish jarayonida:

4•	•1
5•	•2
6•	•3

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Defektologiya kafedrası

**TIFLODIDAKTIKA
fanidan**

MUSTAQIL ISH

**MAVZU: KO`ZI OJIZ BOLALAR MAXSUS INTERNAT-
MAKTABLARIDA FANLAR ASOSIDA O`QITISHNING
OG`ZAKI METODI**

**Bajardi:G.Temirova
202- guruh**

Rahbar:D.Mustafaqulova

J I Z Z A X – 2013

Tiflodidaktikada o`qitishning eng kadimgi metodlaridan biri bu og`zaki metoddir. Ko`rishda nuksoni bor bolalar maktablarida ta`limning og`zaki metodi asosida o`qitiladi. Eshitish va eshitgan narsasini xotirada sakdab qolish ko`zi ojizlar ta`limida ilg`or jarayon bo`lib, bu metod asosida ukish ko`zi ojizlar uchun qo`lay va samarali metoddir.

Xikoya—o`quvchilarning bilimlarini muayyan tizimida uzlashtirishlariga kumaklashadigan, o`quv materialini jonli, obrazli bayon qilishdir. O`qituvchining so`zi ko`zi ojiz va zaif ko`ruvchi o`quvchilar bilimlarining muxim manbaidir.

Xikoya metodining afzallik jihati shundaki, belgilangan vakt yoki dars jarayonida o`qituvchi hikoya qilayotgan mavzusi yuzasidan juda kup ma`lumotlarni keltirish va ularni o`quvchilar ongiga etkazib berish mumkin. Masalan, 9-sinfda adabiyot darsni utayotgan o`qituvchi CHingiz Aytmatovning "Kiyomat", "Asrga tatigulik kun" asarlarini o`qiyotgan chogida roman ichidagi voqealarni uta ta`sirli va obrazli tarzda xikoya qilib bersa, uquvchi darslikda keltirilgan narsani o`qish davomida olgan ma`lumotini boyitadi. obrazli ifodada esa asar haqidagi taassuroti kengayib, estetik zavq oladi. O`qituvchi xikoya metodidan foydalanganda quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

1. Voqea bayon qilinayotgan vaktida orfoepiya qoidalariga rioya qilish;
2. Xikoya qilinayotgan ma`lumotlar darslikda keltirilgan matnning aynan o`zi bo`lmasdan, balki mantiqiy bog`liqlikdan o`zilmagan xolda yangi- yangi va muxim ma`lumotlarni keltirishi lozim;
3. Xikoya bayon qilinayotgan paytda ovoz toni bir xil bulmasligi kerak. CHunki bu xalat o`quvchini tez toliqtiradi va darsga qaratilgan diqqatni bushashtiradi. Nutq jarayonida xayajonli nuqtalarda ovozni kutarishi, taxlikali jarayonlarda esa ovozga shiddatlik tusini berish, umuman olganda, o`qituvchi aktyorlik maxoratini ishga solishi lozim.
4. O`qituvchining hikoyasi o`quvchilarning yosh xususiyatlariga va tafakkur tarziga mos kelishi, ta`lim standartlariga muvofiq bo`lishi lozim.

5.O'qituvchi xikoya qilish davomida o'quvchilar bayon qilinayotgan fikrni yaxshi tushunayotganliklarini va voqealarni ongli ravishda taxlil qilayotganliklarini xis qilib turishi lozim.

Tushuntirishn metodi. Ko'zi ojiz bolalar maktabida ushbu metod asosida o'qitish kattik talab qilinadi. Chunki kur va zaif kuruvchi o'quvchilar sog'lom o'quvchilar singari hodisalar, sabab-oqibat bog'lanishlarining nozik jixatlarini yaxshi anglay olmaydilar. Natijada o'qituvchi kumagiga muxtoj bulishadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi bu metodni mukammal bilishi lozim. Masalan, samolyotning kushlar kabi kanot kokib emas, balki uning yoqilg'i va dvigatellar yordamida xarakatlanishini, erning kuyosh atrofida, oyning esa er atrofida kay tarzda aylanishini jismlar orkali, iloji bulsa, yonib turgan lampa atrofida aylana doiralar xosil qilgan holda, hamda usha halqa (Mars, Venera, Er, Merkuriy)larni lampa (kuyosh) atrofida aylanishini ko'zi ojiz o'quvchiga ushlatib kursatish lozim.

O'qituvchining tushuntirishi natijasida o'quvchining tafakkur darajasi usadi, narsa, jism, xodisalarning xarakatlarini anglay olmagan xolatda paydo buladigan "nima uchun?", "nima sababdan?", "kanday qilib?" kabi savollariga javob oladi.

Suhbat metodi. Suhbat metodi xikoya metodidan farkli motarok, monologik xususiyatga ega emas, balki dialogik shaklga ega. Suhbat asosan dars jarayonining kirish kismida utilgan mavzuni surash boskichida faol qo'llanadi. Bu vaziyatda o'qituvchi tomonidan savol beriladi va bu berilgan savolga o'quvchilar javob berishadi. Darsning yakuniy kismida, ya'ni yangi bayon qilingan darsni mustaxkamlash paytida yohud o'quvchilarning ba'zi bir tushunmagan jixatlarini o'qituvchidan surash jarayonida vujudga keladi. Suhbat metodining eng asosiy vazifalaridan biri xar ikala yoki uchala tarafning xam faol bulishligidir.

Biroq ko'zi ojizlar psixikasida tez-tez uchrab turadigan bir holat borki, u ham bulsa suxbatdan qochishlik, kirishuvchanlikning etishmasliti, nihoyatda kamgaplilik (notug'ri gapirmadimmi, shunday desam xato bulmaydimi, suxbatdoshimga karab so'zlayapmanmi) kabi muloxazalarga borishdir. Bunday xolatlar ko'zi ojizlarga ota – onalari va o'qituvchilarining befarkligi natijasida kelib chiqadi.

Ko'zi ojiz bola juda tor muxitda usishi, xamda sanokda kishilar bilangina suzlashishi, suzlashganda xam, "ovqatlanasanmi?", "uxlaysanmi?", "musika eshitasanmi?", "kaerga bormokchisan?" kabi kiska suz yoki gaplarga "xa", "yuk", "yotokxonamga" kabi kiska javoblar asosida javob berishi yukoridagi ta'kidlangan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunday oqibatlarni oldini olish uchun ota-onalar, murabbiylar bolani tor doirada tarbiya qilmasliklari kerak, uni ancha faol muxitga olib kirishi, sog'lom tengdoshlari bilan dustlashtirishi, bogcha, maktab va tugaraklarga jalb qilishlari darkor. SHundagina ko'zi ojiz bola suxbat yoki savol-javob paytida faol buladi. CHunki u bogcha, maktab, to'garaklar xamda do'stlar davrasida mulokatchanlik ko'nikmasiga ega buladi.

O'quvchilar bilan suhbat qanday maqsadda o'tkazilmasin, unga kuyidagi bir qator umumpedagogik talablar qo'yiladi:

- pedagog savollari mazmunli, anik, ta'riflangan, shakl jixatidan lo'nda bulish kerak;

- savollar mantiqiy izchillikda beriladi, tahlil, qiyoslash, taqqoslash va boshqa fikrlash amallarini bajarish talab qilinadi;

- berilayotgan savollar o'quvchining fikrlash qobiliyatiga va yosh doirasiga mos bo'lishi lozim;

- savol-javob jarayonida o'quvchining fikrlash darajasini, muammoga yoki vaziyatga munosabatini hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini aniqlash uchun mantiqiy savollar berish kerak;

- dars jarayonida o'tkazilgan savol-javoblar natijasida vujudga keladigan tushunarsiz, munozarali vaziyatlarda tahlil qilish, tushuntirish va aniq dalillar bilan isbotlashga tayanishi lozim;

Qo'rgazmalilik metodi. Mazkur metod asosida dars o'tish o'quvchiga atrof-muhitdagi hodisalarni, jismlarni yaxshi idrok qilish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchi dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalansa, o'quvchilar o'sha jism haqida qilingan bayondan nazariy ma'lumot olishlarigina mumkin. Agar o'qituvchi o'sha jismni darsga olib kirish imkoniyatiga ega bo'lsa, o'quvchilarda jism yoki narsa haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilim shakllanadi.

Tabiiy ko'rgazmali vositalar. YUqorida ta'kidlanganidek o'qituvchi dars o'tish jarayonida ko'rgazmali predmetlardan foydalanishi kerak. Masalan, biologiya o'qituvchisi o'quvchilarga ninabargli yoki ildiz mevali o'simliklar haqida dars o'tayotgan vaqtida ularning bargi va mevalaridan foydalanishi, hattoki tabiat qo'ynida dars olib borgan holda ko'zi ojiz o'quvchilarga ularning qanday eqilishini, o'sishini va meva hosil qilishini jonli tarzda tushuntirishi o'quvchilarning o'tilgan darsni o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Amaliy san'ash buyumlari ko'rgazmasi. Mehnat, kasb ta'limi, kichiq guruhlar bilan ishlash, ijtimoiy va maishiy yo'nalish darslarida amaliy ko'rgazmalardan foydalanish o'quvchilarda o'zlari qo'llari bilan uishagan jismni tez va sifatli yasash imkoniyatini beradi. Bolg'a, bolta, arra singari duradgorlik asboblari ishlatish va uning to'zilishini tashqil qilgan elementlarini paypaslab ko'rish natijasida ko'zi ojiz o'quvchi ongida o'zgaralar tomonidan bolg'a, bolta, arra so'zlari ishlatilganda o'sha jismlarning ko'rinishi shakllanadi. Mabodo, o'qituvchi unga vazifa sifatida taxtadan o'sha mehnat jihozlarini yasab kslishni berganida, bola o'zlashtirgan ob'ektning tasviriy holatini ongida tasavvur qilgan holda topshiriqni qiynalmasdan bajara oladi.

Texnika vositalari ko'rgazmasi. Ko'zi ojizlar ta'limida bu metoddan foydalanish ommalashgan. Chunki ko'zi ojizlar o'zlarining darsliklarini adabiy na badiiy asarlarni hamda shunga o'xshash ma'lumot va manbalarni audiokasseta yoki boyitilgan xotiraga ega bo'lgan diktafonlarga yozib olishgan. Ammo bu texnika iositalaridan o'z vaqtida va maqsadli foydalanish kerak. Masalan, adabiyot darslarini o'tish chog'ida o'ramli audiokassetali va DVD disklarga yozib olingan badiiy asarlardan, ya'ni gapiruvchi kitoblardan unumli foydalanish mumkin. Aytaylik, o'qituvchi adib Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'quvchilarga tushuntirmoqda. Bu vaqtda o'qituvchi darsni obrazli va ko'rgazmali qilib o'tishi uchun ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasida saqlanayotgan Hamza nomidagi o'zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan 16 qismli va 16 ta kassetadan iborat o'ta mukammal sahnalashtirilgan gapiruvchi kitobdan foydalanishi mumkin.

Bunda o'qituvchi mahorati bilan birga teatr aktyorlarining mahorati uyg'unlashib o'tilgan dars va asar mazmuni o'quvchilar ongida uzoq naqt saqlanib qoladi.

Amaliy metodlar. Fan asoslariga o'qitishning ushbu metodi ikki asosda olib boriladi:

mashqlar;

amaliy ishlar

Mashklar bilan ishlash ommaviy va an'anaviy usul bo'lib, ko'zi ojiz bolalarni o'qitishda xam, qoidani ifodalash, uni yaxshiroq tushuntirish uchun mashklardan foydalanish samaralidir. Lekin mashklar bilan ishlashda ko'zi ojiz bolalar uchun moslashtirilgan mashqlarning berilishi lozim. Masalan, qo'yi sinflarning, ayniqsa, ona tili darsligida "Rasmga qarab matn to'zing", "Rasmdagi ketma – ketlikni bog'lang" kabi mashqlar ko'plab uchraydi. Bunday mashqlarni bajarish ko'zi ojiz bolalar uchun kiyinchilik tutaradi. Bu muammoli vaziyatni xal qilish uchun ko'zi ojizlar uchun moslashtirilgan uchun darsliklarini chop etayotgan paytda surat bilan ishlanadigan mashklar urniga kitob mualliflari bilan kelishgan holda, o'sha mashqlar o'rnini bosqich oladigan, ya'ni koidada berilgan ifodani amaliyot chog'ida ko'zi ojiz bolalar bajara oladigan mashklar bilan almashtirish lozim.

Amaliy ishlar — amaliy metodning bu boskichi muxim pedagogik vazifalarni bajaradi. Bolani mustaqil ishlashga, jism xakida tugri tasavvur xrsil qilishga imkoniyat berishi bilan birga, ba'zi ko'zi ojiz bolalar ruhiyatidagi "Bir o'zim qila olmayman", "Bo'zib kuysam nima qilaman", "Bajara olmasam uyat- ku", - degan andishalarga bardam berib, mustaqil ishlash, nazariy olgan bilimni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantiradi.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Defektologiya kafedrası

**TIFLODIDAKTIKA
fanidan**

MUSTAQIL ISH

**MAVZU: KO'ZI OJIZ BOLALARNI O'QITISHDA
YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

**Bajardi:M.Saidova
202- guruh**

Rahbar:D.Mustafaqulova

J I Z Z A X – 2013

Didaktik o`yin metodlaridan foydalanish

Ko`zi ojiz bonalar maxsus internat-maktablarida dars berayotgan o`qituvchilar, xattoki, malakali tiflopedagoglar xam ko`zi ojizlar ta`limida yangi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida keng foydalanishmaydi. Ko`p xollarda «Ko`zi ojizlarni an`anaviy usulda o`qitish yaxshi samara beradi. YAngi pedagogik texnologiyalardan foydalanshi ko`zi ojiz bola uchun tushunarsiz va mavzuni o`zlashtirishda kiynaladi»- degan fikrlar xam uchraydi. Birok, bu fikr mutloko noto`g`ridir. CHunki didaktik uyin - metodlaridan foydalanish ko`zi ojizlar uchun maxsus pedagogik texnologiyalarni qo`llash an`anaviy tarzda dars utishdan kura yaxshi natija berishi amaliyot jarayonida o`z tasdig`ini topgan, isbot talab qilmaydigan xakikatdir.


YAngi pedagogik texnologiyalar asosida dars utish uchun O`qituvchi erinmasligi, izlanishi, bir suz bilan aytganda, pedagogik yuklamasini sidqi dildan bajarishi etarlidir.

Davlat ta`lim standartlari barcha o`quv fanlari oldiga o`quvchi shaxsining mustaqil fikrlash, o`zgalar fikrini anglash, baholash va hurmat qilish, uz fikrini ogzaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish darajasida ustirishni talab etmokda. Bu esa nazariy kridalarni quruq yod olishni emas, balki ana shu konunlarni amalda qo`llay olish malakasini ustirish asosida ijodiy fikrlashga urgatishni talab etadi. Bunda yangi pedagogik texnologiyadan urinli foydalanish, darsni qiziqarli, ijodiy hamda samarali bulishiga olib keladi. Darsni yangi pedagogik texnologiya asosida tashqil qilishda didaktik uyinlarni axamiyati katta. Biz kuyida ko`zi ojizlarni o`qitishda foydalanish mumkin bulgan maxsus didaktik uyinlar xakida fikr yuritamiz.

SHaklli uyin

Bu uyindan darslikdagi istalgan mavzuni utishda foydalanish mumkin.

Uyinning jihozi: qattiq qog'ozdan kesilgan uchburchak, turtburchak, beshburchak shakllari.



Darsda sinf uquvchilari ikki yoki uch guruxga bulinadi. SHuni aytish kerakki, ko'zi ojiz bolalar maxsus internat-maktablaridagi o'quvchilar sinfda ozchilikni tashqil qilganligi uchun ikki guruxga, o'quvchilar soni 15 taga etganda esa 3 guruxga bulish maqsadga muvofikdir. O'quvchilarni gypuxra bo'lish vaziyatdan kelib chiqdan xolda xal qilinib, bu jarayon uyin konun-koidasiga deyarli ta'sir qilmaydi.

Xar bir gurux o'ziga shakl tanlaydi. Tanlangan shakllar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi. O'qituvchi qur'a tashlash yo'li bilan qaysi guruh birinchi javob berishini aniklab oladi va savollarni guruxlarga galma-galdan bera boshlaydi. Xar bir tug'ri javob uchun guruh sardori uz guruxi shaklini o'qituvchi stoli ustidagi sovrin kutichasiga tashlaydi. Savolga javob bera olmagan guruhning savoli keyingi guruxlarga xam beriladi. Mobodo berilgan savolga xech qaysi guruh javob bera olmasa, keyingi savolga utiladi. Uyin oxirida sovrin kutichasidagi shakllar sanaladi. Kaysi guruhning shakli kup bulsa, shu guruh g'olib hisoblanadi.

«Zakovot» uyini

Bu uyindan mustahkamlash, takrorlash darslarida keng foydalanish mumkin.

Uyinni utkazishda sinf ikki guruhga bulinadi. O`qituvchi uyinda boshlovchi vazifasini bajaradi. Xar ikki guruh o`ziga guruh sardorini belgilaydi. Sung konvertdagi savollardan tanlab oladilar. Savolga tayyorlanish uchun 1 dakika vaqt beriladi. Guruh a`zolarining kelishuviga muvofiq bir kishi guruh a`zolarining javobini umumlashtirib bayon qiladi.

Guruh a`zolaridan birortasi javobdan ko`nikmasa, javoblarni to`ldiradi. Savolning oddiy yoki murakkabligiga qarab, oldindan to`liq, javob uchun ball konvertga yozib quyiladi.

Uyin sungida har bir guruh tuplagan ballarini hisoblashadi va ballar mikdoriga qarab g`olib aniklanadi. Bu uyindan kuzlangan maqsad, o`quvchilarda o`zi va o`rtoqlarining javobini sinchiqlab kuzatib borish, baholash hislarini tarbiyalash va mas`uliyat hissi hamda javoblarni taxlil qilish qobiliyatiii rivojlantirishdir


O`qituvchi uyin jarayonida faol ishtiroki, savollarga aniq va kunda javobiga qarab o`quvchilarni baholashi mumkin.

«Tarozi» uyini

Uyinning jixozi: Maktab ustaxonasida tayyorlangan tarozi va shashkaning oq, qora donalari.

Bu uyindan yangi mavzuni utishda, darslikdagi topshiriklarni bajarishda foydalanish mumkin.

Sinf ikki guruxta bulinadi. SHashka donalari ikki guruh o`rtasida taksimlanadi. Utilgan mavzu yuzasidan birinchi guruh, ikkinchi guruxga savol beradi, ikkinchi guruxning javobini eshitgach, birinchi guruh lozim topsa, tuldirishi mumkin. Keyin ikkinchi guruh savol beradi, birinchi guruh javob beradi, ikkinchi guruh javobdan qoniqmasa, tuldirishi mumkin.



shashka donasi

shashka donasi

Qaysi guruh to'g'ri javob bersa, o'zlariga karashli pallaga 1 ta shashka donasini tashlaydi. Qaysi guruxning pallasi og'ir kelsa, usha guruh g'olib deb topiladi.

«Dimoya» uyini

Bu uyindan yangi mavzuni bayon qilishda foydalanish mumkin. Buning uchun sinf ikki guruxga bulinadi,

Birinchi guruh «Bilag'onlar», ikkinchi guruh «Topagonlar» deb nomlanishi mumkin. Xar ikki guruxga aloxida topshirik, beriladi. Masalan, «Bilagonlar» guruhi «Alisher Navoiyning xayot yo'li» mavzusida, «Topagonlar» guruhi esa «Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati» mavzusida ma'ruza tayyorlaydi. Buning uchun 4-5 minut vakt ajratiladi. Ma'ruza tayyorlashda darslikdagi topshiriq xamda nazariy materialdan foydalaniladi. Guruh uz a'zolari ichidan 1 ta asosiy ma'ruzachi, 1ta kushimcha ma'ruzachi tanlaydi.

Bu ma'ruzachilar gypyxda berilgan mavzu buyicha darsni bayon qiladi. 1-ma'ruzachining kamchiligini kushimcha ma'ruzachi tuldiradi. Ikkinchi guruh savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Keyin 2-guruh ma'ruza bilan chiqadi. 1 -guruh savollar beradi. Uyin shu tarzda davom etadi. O'qituvchi boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Ma'ruzachilarning bayoni tulik, bulmasa, o'qtuvchi tuldiradi.

Bu uyinning axamiyati shundaki, o'quvchilar kitob bilan mustaqil ishlashni xamda utilgan mavzu yuzasidan kushimcha adabiyotlarni Ukishni urganadilar.

«Ha - yo`q» o`yini

Bu uyindan yangi mavzuni mustaxkamlash yoki utilgan mavzuni takrorlash darslarida foydalanish mumkin.

Buning uchun o`qituvchi oldindan savollar tayyorlaydi va xar bir o`quvchiga 5 tadan savol beradi. O`qituvchining har bir savoliga o`quvchilar qisqa, «Ha» yoki «Yo`q» deb javob berishi kerak.

Masalan:

- Er kuyosh atrofida aylanadimi ?
- Xa
- Er oy atrofida aylanadimi ?
- Yuq.
- Dunyoda oltita okean bor - a ?
- Yo`q.
- Er sirtiga metioridlar tushishi mumkinmi?
- Xa.

Xar bir to`g`ri javobga «1» baldan berib boriladi. Noto`g`ri javobga esa, «0» ball beriladi. So`nggi savoldan keyin o`quvchining bali jamlanadi va bahosi aniklanadi.

Bu uyin o`quvchilarni tez va tugri fikrlashga urgatishda muxim ahamiyatga ega bo`lib, xozir javoblik layokitini o`stiradi.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul`teti

Defektologiya kafedrası

**TIFLODIDAKTIKA
fanidan**

MUSTAQIL ISH

MAVZU: Idish tovoqlar

**Bajardi: O`.Otamurodova
202- guruh**

Rahbar: D.Mustafaqulova

J I Z Z A X – 2013

Maxsus tayyorlov buyinlari va mashklari davomida bolalar predmetlarning konstruksiyalarini yaratish uchun zarur bulgan fazoviy xususiyatlari bilan tanishadilar. Bu urganish mashklari bolaning mustaqil konstruksiyalar yaratishga haqiqiy sensor tayyorligini ga`minlaydi. Tayyorlov mashklarining mazmuni maxrulotning asosiy qismining mazmuni bilan belgilanishi xamda bosh konstruktiv vazifani xal etishga qaratilishi l ozim.

Farzandingizga chelak — bu suvni saklash yoki tashish uchun ishlatiladigan idish ekanligini, u ruxlangan metallardan yoki plastmassadan yasalishini, uning dastagi bo`lib, u chelak quloqlariga biriktirilganligini gapirib bering. Farzandingizga tabiiy chelakni ko`rsating. U esa chelakni dastagidan boshlab kuzatsin va har ikkala qo`lini chelakning tashqi yuzasidan simmetrik tarzda yurgizib, chelakning yuzasi pastga tomon qisqarib borishini ko`rsin. So`ngra uning qo`lini chelakning ichki yuzasidan ham yurgizing. Chelakni kuzatib bo`lgandan so`ng uning bo`rtma manzarasini ko`rib chiqishga utish mumkin. Bunda farzandingizning ung qulini burtma manzarani ustiga

Kuying yukordan pastga qo`lini va u butun rasmni his qilsin. So`ngra bola o`ng va chap qo`l barmoqlari bilan manzarani o`rgana boshlaydi; siz esbu vaqtda unga: «Mana bu — chelakning dastagi u chelakdagi quloqchalarga ulangan. Bu esa chelakning tashqi tomoni. Endi esa rasmga kaftlaring va barmoqlaring bilan yana bir marta qarab chiq», deb turasiz.

Bolalar topshiriklarning ma`nosini tushunib, xajmli namu-nalarga karab ikkita predmet urtasidagi fazoviy munosabatlarni modellashtirishni eplay boshlashlari bilan, yassi tasvirli namunalarni kiritib, topshiriklarni murakkablashtirish mumkin. Bolalar ikkita xajmli ob`ektning fazoviy munosabatlarini ham xajmli, xam yassi namunalarga karab modellashtirishni urganadilar. Bu mashklar juda xam foydali, chunki ular akushy qoloq bolalarda real, uch ulchamli fazoni yassi, ikki ulchamli tasvirga solishtirish kunikmasining shakllanishiga yordam beradi.

Yassi namunalar bilan ishlash uchun didaktik materialni tayyorlashda namunalar ning predmetli mazmunini aniq belgilash kerak.

Namunalar sifatida ishlatiladigan yassi tasvirlarning tuplamiga geometrik shakllarning tasvirlari (doyra, kvadrat, uchburchaq oval va xokazo) kirishi kerak ularni bilish amaliy faoliyatni amalga oshirish uchun xam, dasturning boshka bulimlarini uzlashtirish uchun Xam zarur buladi. Geometrik shakllardan tashkari, yaqin atrofdagi predmetlar tasviridan foydalanish mumkin: idish-tovoq, uyinchoklar, kiyim va xokazo. Turli-tuman ob`ektlarni kiritish ularning nomini mustaxkamlashga, yangi suzlarning amalda ishlatilishiga yordam beradi. Namunalar tasviri bolalarga individual ishlash uchun taklif etilgan tasvirlardan ancha kattaroq bulishi kerak Masalan, doyra diametri va kvadratning tomoni individual foydalaniladigan materiallarda 5—6 sm, namunada esa 10—15 sm bulishi mumkin (bu namunalarning bolalardan qanchalik uzoq bulishiga bogliq).

Predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarning idrok etilishi — qayta kursatilishini rivojlantirishga yordam beruvchi uyinlar va mashklar turt turga bulinadi:

a) xajmli namunalarni idrok etish va ularni xajmli materiallarda kayta kursatish; b) xajmli namunalarni idrok etish va ularni yassi materiallarda kanta kursatish; v) yassi namunalarni idrok etish va ularni yassi materiallarda kaita kursatish;

g) yasen namunalarni idrok etish va ularni xajmli materiallarda kdyta kursatish. Vir mashgulotda idrok etish—kayta kursatishning har xil turlarini birgalikda amalga oshirish mumkin.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Muminova L.R., Ayupova M. Logopediya T.: «O`qituvchi» 1992.
2. SHomaxmudova R.SH., Muminova L.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutkidagi nuksonlarni bartaraf etish yullari. Toshkent, 2006.
3. Flerova J.M. Logopediya. Feniks nashriyoti.
4. Muminova L.R. Logopediya, Toshkent, 2006.
5. Mamedov Q.SHoumarov G.B. Akli zaif bolalar psixologiya-si. T.: «O`qituvchi», 1994.
6. Soatov M.I. YOrdamchi maktabda matematika ukitish uslu-biyoti. T.: «O`qituvchi», 1993.